



BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

BANK PRODUCT ENHANCEMENT: MODERN APPROACHES AND DEVELOPMENT TRENDS

¹Xujamuratov Abbos Mardonovich

¹ATB "O'zsanoatqurilishbank", Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori, PhD. **ORCID:** 0009-0001-8697-2112

G-mail: abbosxujamuratov@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada bank mahsulotlarining samaradorligini oshirish, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash hamda banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish yo'llari atroflicha yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy bank mahsulotlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ularning mijozlar ehtiyojlariga moslashuvi hamda milliy iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri tahlil qilinadi.

Eng. - This article explores ways to improve the efficiency of banking products, enhance the quality of customer services, and strengthen the competitiveness of banks. It also examines the key directions for the development of modern banking products, their adaptability to customer needs, and their positive impact on the national economy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ bank mahsulotlari, raqamli kreditlar, yashil kreditlar, innovatsion mahsulotlar, bank raqobatbardoshligi, iqtisodiy ta'sir, texnologik taraqqiyot, bank strategiyasi.

❖ bank products, digital loans, green loans, innovative products, bank competitiveness, economic impact, technological advancement, banking strategy.

Kirish.

Zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlari zamon bilan hamnafas bo'lishi, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha olishi kerak. Hozirgi kunda global miqyosda iqtisodiy o'sish, yangi texnologiyalarning rivojlanishi, raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, banklar uchun eng muhim masalalardan biri — o'z mahsulotlari va xizmatlarini innovatsion yondashuvlar orqali takomillashtirish hamda mijozlarga yanada samarali xizmat ko'rsatishdir.

Dunyoda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, yangi kredit mahsulotlari va

xizmatlarining yaratilishi banklar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. Onlayn va mobil banking, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari bank mahsulotlarining samaradorligini oshirishga, mijozlarga yanada qulay va tezkor xizmatlar taqdim etishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil kreditlash amaliyotini kengaytirish hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bank mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning ekologik

omillariga qarab, banklar o'z mahsulotlarini qayta ko'rib chiqish, yangilash va o'zgartirishga majbur bo'lmoqda.

Zamonaviy bank mahsulotlarini takomillashtirish yo'nalishlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, banklarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi banklarning innovatsion yondashuvlar orqali xizmatlarini yangilash va rivojlantirish, natijada esa samaradorlikni oshirish hamda mijozlarga qulay va xavfsiz xizmatlar taqdim etishga qaratilganligi bilan bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

B.П. Барайсева va A.И. Шмирева o'z tadqiqotlarida yangi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ulardan faol foydalanish kredit tashkilotlarining mijozlar bilan mahsulot va xizmatlarning mavjudligi sohasidagi munosabatlariga ta'sir qiladi, deb ta'kidlaydilar [1].

T.C. Тепкеева o'z tadqiqotida bank mahsulotlari va xizmatlarining mijozlar ehtiyojlari asosida o'zgarishini tahlil qilgan holda, yangi xizmat va mahsulotlarni ishlab chiqishda mijozlarning xulq-atvoriga e'tibor qaratilishi muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu jarayon bosqichma-bosqich, maqsadli va moslashtirilgan yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Natijada esa innovatsion va ilg'or bank xizmatlarini joriy etayotgan moliyaviy muassasalar rentabelligi oshib bormoqda [2].

P.A. Xafizova o'z tadqiqotlarida bank mahsulotini (xizmatchilik xizmatini) moliya bozorida banklar tomonidan pul mablag'lariga bo'lgan talab va taklif nisbatidan kelib chiqib amalga oshiriladigan turli xil moliyaviy operatsiyalar majmui sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, ushbu faoliyatning asosiy maqsadi bank tadbirkorligini takomillashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish va

raqobatbardosh moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi [3].

В. Платонова va M. Higginsning fikriga ko'ra, bank mahsuloti — bu alohida bank xizmati yoki mijozlarga standart shartlar asosida taklif etiladigan bank xizmatlari majmuasidan iboratdir. Ular bu tushunchaga kreditlar to'plami, depozitlar, plastik kartalar, pul o'tkazmalari kabi asosiy moliyaviy xizmatlarni kiritadilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, bank mahsuloti — moliyaviy xizmatlarning tizimli va standartlashtirilgan shakli bo'lib, mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan [4].

О.Б. Веретенникова va Е.Г. Шатковская o'z tadqiqotlarida bank xizmatini bank mahsulotining mustaqil turi sifatida ko'rib, uning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar. Ularning ta'kidlashicha, bank xizmati — bu kredit muassasasining balansidagi buxgalteriya hisobvaraqlari orqali pul mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turi bo'lib, u mijozga operatsiya bilan birgalikda yoki mustaqil mahsulot sifatida taqdim etilishi mumkin [5].

C.C. Величко tahliliga ko'ra, zamonaviy sharoitda bank mahsuloti va bank xizmati o'rtasidagi an'anaviy chegaralar tobora qisqarib bormoqda. Uning fikriga ko'ra, bank xizmati mijozlarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bank mahsuloti esa ushbu ta'sirni amalga oshirish va mustahkamlashda vositachi rolini bajaradi [6].

Д.Н. Терновский o'zining ilmiy izlanishlarida ta'kidlaganidek, iqtisodiyot va moliya sohasidagi zamonaviy ilmiy-amaliy adabiyotlarda "bank mahsuloti" atamasi ostida, odatda, bank mijozlarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan alohida xizmat yoki o'zaro bog'liq xizmatlar majmui tushuniladi. Muallif bu yondashuv orqali bank mahsulotini faqat moliyaviy operatsiya sifatida emas, balki mijozga yo'naltirilgan kompleks xizmatlar tizimi sifatida talqin etadi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda zamonaviy bank mahsulotlarini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish jarayonida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning bank mahsulotlari va xizmatlariga oid tahlil va izohlariga, shuningdek, "bank mahsuloti" va "bank xizmati" tushunchalariga berilgan ta'riflar hamda tavsiflarga tayanildi. Tadqiqot davomida bank mahsulotlari va xizmatlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy, texnologik, ekologik va raqamli omillar tizimli yondashuv asosida o'rganildi, ilmiy mushohada va mantiqiy tahlil usullari keng qo'llanildi.

Mavzu doirasida ko'plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar hamda innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodik asosini zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, bank faoliyatining hozirgi zamon tendensiyalarini o'rganish, shuningdek, bank mahsulotlarining bozordagi samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy bozor sharoitida banklar mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda alohida o'rin egallaydi. Ko'plab iqtisodchi olimlar banklarni iqtisodiyotning "lokomotivi" deb atashadi. Jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondiradigan xizmatlar va mahsulotlar majmuasini ta'minlovchi zamonaviy bank tizimisiz iqtisodiyotning rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq bank mahsulotlari, masalan, ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ular o'z mazmunini ifodalovchi xususiyatlarga ega bo'lib, ularni chuqur o'rganish kuchayib borayotgan banklararo raqobat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori moliya bozorining eng muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bozor orqali kapital qayta taqsimlanadi, iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar tarqatiladi.

Bu jarayonlarning faolligi taklif etilayotgan bank mahsulotlarining miqdori, sifati va bozordagi talab darajasiga bog'liqdir.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori iqtisodiy jarayonlarning uzluksiz o'zgarishi va transformatsiyalanishi sharoitida bank tizimining moslashuvchanligi hamda raqobatbardoshligini aks ettiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu bozordagi dinamik o'zgarishlar, xususan, banklar tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar hajmi, berilayotgan kreditlarning tarkibi va sifati, muddati o'tgan qarzar miqdori, hisob-kitob va to'lov tizimlarining rivojlanish darajasi, qimmatli qog'ozlar va xorijiy valyutalar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalar moliya tizimining hozirgi holatini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Shu jihatdan, bank mahsulotlarini takomillashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali bank tizimining yaqin istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda sohaga oid samarali strategik yo'nalishlarni shakllantirish mumkin.

Bank xizmatlari bozorida, yuqorida ta'kidlanganidek, nafaqat tijorat banklari, balki boshqa moliya-kredit tashkilotlari o'rtasida ham bank faoliyatining an'anaviy yo'nalishlarida (depozitlarni jalb qilish, kreditlar berish, bo'lib to'lash, nasiyaga savdo qilish) va boshqa xizmatlarda (hisob-kitob va to'lov operatsiyalari, plastik kartalar chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish, mablag' va resurslarni ishonchli boshqarish, fond va valyuta bozorlarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar) raqobat darajasi ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat tijorat banklari, balki raqamli platformalar va marketpleyslar kabi boshqa moliyaviy subyektlar tomonidan ham faollashtirilmoqda. Shunday qilib, raqobatning kuchayishi bozorda dinamik va innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklari mahsulotlari bozorining rivojlanish yoʻnalishlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Kreditorlar tarkibining diversifikatsiyalanishi va ular tomonidan taklif etilayotgan kredit mahsulotlari hamda kreditlash mexanizmlarining kengayib borayotgani. Anʼanaviy tijorat banklari bilan bir qatorda, mikromoliya tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari, fintech korxonalari faoliyati kuchaymoqda. Jismoniy shaxslar segmentida POS-kreditlar, avtokreditlar, ipoteka va islomiy moliyalashtirish kabi mahsulotlar, yuridik shaxslar segmentida esa sindikatlashtirilgan kreditlar, venchur moliyalashtirish va istiqbolli loyihalarga yoʻnaltirilgan investitsiyalar kengaymoqda.

2. Mijozlarning moliyaviy salohiyatini hisobga olgan holda kreditlash hajmi ortib bormoqda.

3. Muddati oʻtgan qarzlar hajmining ortishi, bozor ishtirokchilarining muayyan risk darajasi ostida faoliyat yuritayotganini koʻrsatmoqda.

4. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi taʼsirining kamayib borayotgani, kredit narxini belgilashda bozor mexanizmlarining (talab va taklif asosidagi) ustunlashuvini bildiradi.

5. Kredit munosabatlari infratuzilmasi zamonaviy texnologiyalar asosida kengaymoqda. Skoring tizimlari, kredit byurolari va boshqa axborot institutlari risklarni tahlil qilish imkoniyatini oshirmoqda.

6. Kreditorlarning talablarining yumshatilishi, kredit resurslarining koʻproq sonli qarz oluvchilar uchun ochiqqligini taʼminlamoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kredit mahsulotlari bilan birga depozit mahsulotlari bozori ham rivojlanmoqda. Hozircha bu sohada kreditlash darajasidagi raqobat koʻzga tashlanmaydi. Depozit mahsulotlarini rivojlantirish yoʻnalishlari quyidagicha:

❖ depozit mablagʻlarini jalb qilish hajmining ortib borishi, ayniqsa foiz stavkalari oshishi fonida jadallashmoqda;

❖ tijorat banklari jalb qilgan resurslar hajmi, nobank moliyaviy institutlarnikidan ustun. Bunga sabablar: pastroq risk darajasi, fond bozorining sust rivojlangani va davlat kafolatlari mavjudligi;

❖ depozit foiz stavkalari barqarorroq boʻlib, ular Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi bilan chambarchas bogʻliq;

❖ milliy valyutadagi depozitlar hajmi xorijiy valyutadagilardan yuqori. Sababi — xorijiy valyutaning yuqori kurs tebranish xavfi;

❖ jismoniy shaxslar depozitlari hajmi yuridik shaxslarnikidan yuqori. Bu holat, aholi qiziqishining ortgani va omonatlarning davlat kafolatiga ega ekani bilan izohlanadi. Yuridik shaxslar esa resurslarini doimiy aylanmada saqlaydi;

❖ depozit mahsulotlari va xizmatlari turlarining kengayishi, banklar tomonidan innovatsion yondashuvlar joriy etilayotganidan dalolat beradi. Anʼanaviy muddatli va talab qilib olinadigan omonatlardan tashqari, mijozlarga moslashtirilgan yangi mahsulotlar taklif etilmoqda. Bu holat SWOT tahlil orqali yanada yaqqol koʻrinadi (1-jadval).

Anʼanaviy va yashil kreditlar oʻrtasidagi SWOT tahlili, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Farqlar asosan maqsadga yoʻnaltirilganligi va ekologik taʼsir doirasida namoyon boʻladi.

Shuningdek, anʼanaviy, yashil va innovatsion raqamli kreditlar har biri oʻziga xos moliyaviy xizmat boʻlib, turli ehtiyojlarga xizmat qiladi. Anʼanaviy kreditlar iqtisodiy barqarorlikni taʼminlasa-da, ekologik va ijtimoiy masalalarga kamroq eʼtibor qaratadi. Yashil kreditlar ekologik loyihalarni qoʻllab-quvvatlaydi, ammo koʻproq investitsiya va cheklangan imkoniyatlarni talab qiladi. Innovatsion raqamli kreditlar esa zamonaviy texnologiyalar asosida tezkor va qulay moliyalashtirishni taʼminlaydi, biroq ularning

xavfsizlik darajasi va foiz siyosati bo'yicha ayrim kamchiliklari mavjud.

1-jadval

Mahsulot turlari bo'yicha SWOT tahlil

<i>An'anaviy kreditlar</i>	<i>Yashil kreditlar</i>	<i>Innovatsion (raqamli) kreditlari</i>
Kuchli jihatlar (Strengths):		
<i>Moliyaviy barqarorlik; Keng qamrovli; Muddatlardagi qulaylik</i>	<i>Ekologik jihatdan foydali; Ijtimoiy mas'uliyat; Raqobatbardoshlik</i>	<i>Tez va oson murojaat qilish; Raqamlashgan va avtomatlashtirilgan; Shaxsiylashtirilgan shartlar; Qulaylik va erkinlik (24/7)</i>
Zaif jihatlar (Weaknesses):		
<i>Ekologik ta'sir; Kredit shartlari (yuqori foiz stavkalari)</i>	<i>Cheklangan imkoniyatlar; Yuqori xarajatlar</i>	<i>Xavfsizlik muammolari; Yuqori foiz stavkalari</i>
Imkoniyatlar (Opportunities):		
<i>Mamlakatdagi iqtisodiy o'sish; Kreditlarning rag'batlantirilishi</i>	<i>Yashil iqtisodiy o'sish; Hukumat va xalqaro subsidiyalar</i>	<i>Texnologiyalar va sun'iy intellekt; Raqobatbardoshlik; Qarzlarini qayta moliyalashtirish imkoniyatlari</i>
Tahdidlar (Threats):		
<i>Ekologik nazorat; Barqarorlikka yo'naltirilgan talablar</i>	<i>Texnologik sinovlar</i>	<i>Qonunchilik va nazorat; Texnologik tahdidlar; Internet bilan bog'liq muammolar</i>

Har bir turdagi kreditlar turli ehtiyojlar va talablarga moslashgan bo'lib, ularning qo'llanilishi qarz oluvchining yoki loyiha maqsadining xususiyatlariga qarab tanlanadi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ekologik barqarorlikka bo'lgan talab har ikki sohada ham o'sish sur'atlarini belgilab bermoqda.

Yaqin istiqbolda bank mahsulotlari va xizmatlari bozorida bir qator muhim o'zgarishlar ro'y berishi kutilmoqda. Jumladan:

1. Tijorat banklari va nobank moliya-kredit tashkilotlari o'rtasida raqobat keskinlashib boradi. Bu jarayon narx siyosati, mahsulot xilma-xilligi hamda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi orqali namoyon bo'ladi.

2. Ustav kapitali miqdorining oshirilishi, texnologik transformatsiyaning yuqori xarajatlari hamda kuchli raqobat muhitida ayrim kichik subyektlarning bozorni tark etish ehtimoli mavjud. Natijada, yirik va moliyaviy

jihatdan barqaror banklar bozordagi ustun mavqeini saqlab qolishi kutilmoqda.

3. Mijozlar ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida banklar tomonidan yangi turdagi depozit va kredit mahsulotlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bu jarayon mijozga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi.

4. Moliyaviy xizmatlar bozorining barqaror o'sishi raqamli yechimlarning joriy etilishiga bevosita bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar bank faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan, bank mahsulotlari va xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. So'nggi yillarda bank amaliyotlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Xususan, mobil ilovalar va onlayn-banking orqali mijozlar moliyaviy operatsiyalarni mustaqil amalga oshirmoqda. Elektron hamyonlar va kontaktsiz to'lov tizimlari bank

infratuzilmasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari tranzaksiyalar xavfsizligi va shaffofligini ta'minlashda keng qo'llanilmoqda.

2. Bank mahsulotlarini shaxsiylashtirish zamonaviy bank tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mijozlarning individual ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatishni nazarda tutadi. Banklar mijozlarning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda moslashtirilgan kredit va depozit takliflarini ishlab chiqmoqda. Shuningdek, big data texnologiyalari asosida mijozlarning ehtiyojlari va moliyaviy harakatlarini tahlil qilish orqali xizmatlar yanada aniqroq va samaraliroq taklif etilmoqda. Mikrocredit va mikroto'lov mahsulotlarining joriy etilishi esa moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirib, aholining kengroq qatlamini moliyaviy xizmatlardan foydalanishga jalb qilmoqda.

3. Yangi iqtisodiy sharoitlar banklarning kredit va depozit faoliyatini qayta ko'rib chiqishni, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. An'anaviy moliyaviy resurslar bilan bir qatorda, muqobil manbalardan – jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat va xaridlar tarixidan foydalanib, kreditga layoqatlilikni baholash amaliyoti kengaymoqda. Shuningdek, P2P (peer-to-peer) platformalar orqali vositachilarsiz, bevosita moliyalashtirish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Bu jarayon yashil moliyalashtirishga ham taalluqli bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan loyihalarni past foizli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

4. Bank xizmatlarida ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlash eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada kiberxavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks choralar, axborot tizimlarini himoyalash hamda firibgarlikka qarshi ilg'or texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Biometrik autentifikatsiya (barmoq izi,

yuzni aniqlash yoki ovoz orqali mijozni tasdiqlash) xavfsizlikni oshirish bilan birga, xizmat ko'rsatish tezligini ham ta'minlaydi. Zamonaviy analitik tizimlar esa risklarni bashorat qilish va kreditga layoqatlilikni chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi.

5. Jamiyatning barcha qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish orqali iqtisodiy tenglikka erishish – inklyuziv moliyalashtirishning asosiy vazifasidir. Bu yo'nalishda banklar, eng avvalo, xizmatlardan foydalanmayotgan yoki cheklangan imkoniyatga ega bo'lgan aholiga soddalashtirilgan va arzon moliyaviy vositalarni taqdim etishi zarur. Shuningdek, kichik va o'rta biznes ehtiyojlariga moslashtirilgan bank mahsulotlari ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirishda muhim o'rin tutadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish, ayniqsa, eksport faoliyati va shartnoma tuzish bo'yicha bilimlarni kengaytirish orqali mijozlarning ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish salohiyati mustahkamlanadi.

6. Bank xizmatlarining sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalari tobora muhim omilga aylanmoqda. Chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish avtomatlashtirilmoqda, bu esa tezkorlik va uzluksizlikni ta'minlaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari orqali mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlari chuqur o'rganilib, ularga mos shaxsiylashtirilgan mahsulotlar taklif etilmoqda. Natijada banklar nafaqat mavjud ehtiyojlarga aniq javob bera olmoqda, balki mijozlarning kelajakdagi harakatlarini ham oldindan bashorat qilish imkoniga ega bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori iqtisodiy o'zgarishlar va transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanish ko'rsatkichlari banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi, berilgan

kreditlar, muddati o'tgan qarzlar, hisob-kitob va to'lov operatsiyalari darajasi kabi omillar orqali aniqlanadi.

Bank xizmatlari bozori asosan ikki asosiy yo'nalishga — kreditlash va depozitlarni jalb qilishga asoslanadi. Kredit mahsulotlari bozorida turli moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar turlari kengayib, bozorda raqobat kuchayib bormoqda. Xususan, mikromoliya tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari va raqamli platformalar tomonidan yangi kreditlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, kredit mahsulotlarining hajmi va muddati ortib borayotgani kuzatilmoqda, ammo bu holat ayrim hollarda muddati o'tgan qarzlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, banklar o'z xizmatlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mobil ilovalar, onlayn-banking, elektron hamyonlar va blokcheyn texnologiyalarining keng joriy etilishi mijozlarga qulaylik yaratib, moliyaviy xizmatlarni tez, xavfsiz va samarali amalga oshirish imkonini bermoqda. Bank mahsulotlarini individuallashtirish va

shaxsiylashtirish jarayoni ham rivojlanib, mijozlarning individual moliyaviy ehtiyojlariga mos xizmatlar taklif etilmoqda.

Innovatsion kreditlash va depozit xizmatlari ham jadal rivojlanmoqda. Jumladan, yangi turdagi raqamli kreditlar va yashil kreditlar shakllanmoqda. Yashil kreditlar ekologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion raqamli kreditlar ilg'or texnologiyalar asosida tezkor va qulay moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, bank tizimida xavfsizlikni ta'minlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, biometrik autentifikatsiya tizimlarini keng joriy etish, shuningdek, risklarni boshqarish sohasida ham zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, bank mahsulotlari va xizmatlari bozori izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar esa raqobatni yanada kuchaytirib, yangi moliyaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning keng joriy etilishini taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вагайцева В.П., Шмырева А.И. Современные банковские продукты: анализ тенденций развития в России и за рубежом // Идеи и идеалы. – 2023. – Т. 15, № 2, ч. 2. – С. 261–276. – DOI: 10.17212/2075-0862-2023-15.2.2-261-276.
2. Тепкеева Т.С. (2016) Современные тенденции развития новых банковских продуктов и услуг для физических лиц. Вестник МФЮА №3. 54-61 стр.
3. Хафизова П.А. Банковские продукты (услуги): содержание и принципы размещения / П.А. Хафизова // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – 2013. – №1. – С. 89-99.
4. Платонова В., Хиггинса М. (2001) Банковское дело: стратегическое руководство / под ред. В. Платонова, М. Хиггинса. 2-е изд. – М.: Консалбанкир, 2001. – 432 с.
5. Веретенникова О.Б., Шатковская Е.Г. (2012) Банковские продукты: сущность и характеристика. Известия УрГЭУ 1(39), 41-46 стр.
6. Величко С.С. (2012) Банковские услуги: экономическое содержание и проблемы предоставления // Банковское дело. № 3.
7. Терновский Д.Н. (2012) Инновационные банковские продукты в кредитовании малого и среднего бизнеса. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Йошкар-Ола – 2012. 20 стр.